

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI HUZURIDAGI BADIY TA’LIM
YO‘NALISHLARIDA PEDAGOG VA MUTAXASSIS KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH HAMDA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son [qaroriga](#) asosan badiiy ta’lim tizimida malakali kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, tasviriy va amaliy san’at, dizayn, san’atshunoslik hamda muzeyshunoslik yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son [qarori](#) bilan O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi tashkil etilganligi va uning faoliyati 2022-yil 1-yanvardan boshlanishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazining (keyingi o‘rinlarda — Markaz) boshqaruv xodimlarining belgilangan umumiy cheklangan soni 12 nafardan iborat bo‘lgan tuzilmasi [1-ilovaga](#) muvofiq;

Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash haqidagi diplomning davlat namunasi [2-ilovaga](#) muvofiq;

Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida mutaxassis kadrlarning malakasini oshirish haqidagi sertifikatning davlat namunasi [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisiga, zarur hollarda, Markaz tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy cheklangan soni hamda mehnatga haq to‘lash fondi doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

3. Belgilansinki:

Markaz davlat oliy va professional ta’lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlar, bolalar musiqa va san’at maktablarining badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarini (keyingi o‘rinlarda — badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlar) qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishga ixtisoslashtirilgan ilmiy-metodik va davlat ta’lim muassasasi hisoblanadi;

tizimidagi ta’lim muassasalarida badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlar bo‘lgan vazirliklar va idoralar har yili 15-noyabrga qadar tegishli tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan badiiy ta’lim yo‘nalishlaridagi pedagog va mutaxassislarning egallab turgan lavozimiga ko‘ra malaka oshirish kurslaridan o‘tishi bo‘yicha belgilangan davriylikni inobatga olgan holda keyingi kalendar yilda malaka oshirish kurslariga o‘qishga yuboriladigan tinglovchilar ro‘yxatini shakllantirib, O‘zbekiston Badiiy akademiyasiga taqdim etib boradilar;

Markaz tinglovchilari sonining bir nafar o‘qituvchi hisobiga nisbatining cheklangan me’yorlari ta’limning san’at yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarida belgilangan bir nafar o‘qituvchi hisobiga tinglovchilar soni nisbatining cheklangan me’yorlaridan 25 foiz past etib belgilanadi;

Markaz xodimlariga oliy ta’lim muassasalari uchun belgilangan me’yorlar bo‘yicha mehnatga haq to‘lash miqdorlari va shartlari tatbiq etiladi;

ta'lim jarayoniga oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari hamda san'at sohasidagi yetakchi mutaxassislar jalb etilgan hollarda, ularga belgilangan tartibda soatbay asosida ish haqi to'lanadi;

qayta tayyorlash va malaka oshirishdan muvaffaqiyatli o'tgan badiiy ta'lim yo'nalishlaridagi pedagoglarga tegishli Vazirlar Mahkamasining "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2006-yil 16-fevraldagi 25-son qarori bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi Qayta tayyorlash haqidagi **diplom** va Malaka oshirish haqidagi sertifikat beriladi;

Markazda oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 23-sentabrda 797-son **qaroriga** muvofiq amalga oshiriladi hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan muvaffaqiyatli o'tgan tinglovchilarga qat'iy hisobda turadigan davlat namunasidagi hujjat hisoblanadigan malaka attestati beriladi.

4. O'zbekiston Badiiy akademiyasi:

a) bir oy muddatda:

sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, Markaz ustavini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin hamda uning davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlasin;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 19-dekabrda PQ-4067-son **qaroriga** asosan qurilishi rejalashtirilgan Pavel Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabining (keyingi o'rinlarda — Maktab) 400 o'rinli o'quvchilar turar joyi loyiha-smeta hujjatlarini qayta ishlab chiqqan holda Maktabga o'quvchilar uchun 200 o'rinli hamda Markazga tinglovchilar uchun 100 o'rinli turar joy va 100 o'rinli o'quv binosi qurish ishlarini 2021-yil va keyingi yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturiga kiritish yuzasidan takliflarni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligiga taqdim etsin;

b) 2022-yil 1-yanvarga qadar:

badiiy ta'lim yo'nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishga taalluqli davlat ta'lim talablari belgilangan tartibda ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta'minlasin;

Markazni yuqori malaka va tajribaga ega bo'lgan kadrlar, shuningdek, xalq e'tirofiga musharraf bo'lgan O'zbekiston xalq rassomlari, O'zbekiston xalq ustalari, O'zbekiston Badiiy akademiyasining akademiklari, soha bo'yicha boshqa davlat mukofotlari va sharaflilarga sazovor bo'lgan mutaxassislar hamda malakali professor-o'qituvchilar bilan ta'minlasin;

malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun o'quv rejasi hamda dasturlarini ishlab chiqsin va tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Madaniyat vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlasin, ularning doimiy ravishda takomillashtirib borilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

5. Quyidagilar Markaz faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari;

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan tanlovlarning natijalari bo'yicha ajratiladigan grantlar;

to'lov-kontrakt asosida tinglovchilarni o'qitishdan tushadigan mablag'lar;

xo'jalik faoliyatidan va shartnoma asosida ko'rsatilgan xizmatlardan tushadigan mablag'lar;

ta'lim xizmatlari ko'rsatishdan, ilmiy-o'quv, o'quv-metodik, ilmiy va axborot-tahliliy mahsulotlarni ishlab chiqarishdan va boshqa faoliyat turlaridan olingan daromadlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlari, xorijiy va donor tashkilotlarning grantlari;

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Belgilab qo'yilsinki, Markazni saqlash xarajatlari 2022-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladi.

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Markazning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' ajratish hamda Markaz uchun 1 ta shaxsiy xizmat yengil avtotransport vositasini saqlash uchun limit ajratish choralari ko'rsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 4-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

8. O'zbekiston Badiiy akademiyasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari — turizm va sport vaziri A.A. Abduxakimov va O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi A.V. Nuridinov zimmasiga yuklansin.


O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2021-yil 21-iyun,
385-son

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21 iyundagi 385-son qaroriga
1-ILOVA

O'zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta'lim yo'nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi

TUZILMASI



Boshqaruv xodimlarining belgilangan umumiy cheklangan soni (professor-o'qituvchilar tarkibi, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlardan tashqari) — 12 nafar.

* Kafedralarning professor-o'qituvchilari tarkibi va o'quv-yordamchi xodimlari, shuningdek, bo'limning texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlari soni qonun hujjatlarida oliy ta'lim muassasalari uchun belgilangan normativlarga muvofiq belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-iyundagi 385-son qaroriga
2-ILOVA

**Badiiy ta'lim yo'nalishlarida mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash haqida davlat
namunasidagi**

DIPLOM
(tavsifi)

Badiiy ta'lim yo'nalishlarida mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash to'g'risidagi diplom A4 formatli oq qog'ozda ofset usulida besh xil rangdan foydalangan holda: matn uchun — qora rangda, rasmlar tasviri uchun — yashil, ko'k, qizil ranglarda, fon uchun — och pushti rangda bosib chiqariladi.

Varaqlarning chap qismida chetidan 10 mm chekingan holda eni 32 mm bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i tasvirlangan tasma joylashtiriladi. Tasmaning yuqori qismida diametri 30 mm bo'lgan Davlat gerbi, past qismida esa — 35 mm o'lchamli ikkita kvadrat qo'shilishidan hosil bo'lgan sakkiz qirrali yulduz, yulduzning o'rtasida muhr uchun 25 mm diametrli oq aylana joylashgan.

Varaqlarning qolgan qismida yuqorida lotin yozuvi bilan davlat tilida "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI. Badiiy ta'lim yo'nalishlaridagi mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash haqida DIPLOM" so'zlari bosiladi. Diplom uchta lotin harfi — MQT va olti raqamli sondan iborat tartib raqami bilan ta'minlangan. Barcha matn naqshli rastrdan iborat och pushti rang fonda bosib chiqariladi.

Diplom:

bosib chiqarishning ikki usuli — ofset va yuqori usuli;
yorug'lik vositasida nusxa ko'chirishni qiyinlashtirish uchun ochiq ranglar;
naqshli rastr;
har xil rangli rastrlardan foydalanish yo'li bilan turli ranglarni tashkil etish;
maxsus qog'ozlar;
o'zgaradigan raqamlardan iborat tartib raqami qo'llanilgan holda oltita himoyaga ega.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi

Namuna

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

Badiiy ta'lim yo'nalishlaridagi mutaxassis kadrlarni
qayta tayyorlash haqida

DIPLOM

MQT № 000000

(Mutaxassisning familiyasi, ismi, otasining ismi)

20__ yil _____ dan 20__ yil _____ gacha

O'zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta'lim yo'nalishlaridagi pedagog va mutaxassis
kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazida

_____ soatga mo'ljallangan

(Qayta tayyorlash kursining nomi)

qayta tayyorlash kursida ta'lim olib, _____

_____ mavzusida bitiruv ishini Davlat attestatsiya

komissiyasida _____ bahoga himoya qildi va unga

_____ huquqi berildi

Muhr o'ri

Direktor

Sana

Qayd raqami _____

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-iyundagi 385-son qaroriga
3-ILOVA

**Badiiy ta'lim yo'nalishlarida mutaxassis kadrlarning malakasini oshirish haqida davlat
namunasidagi**

SERTIFIKAT

(tavsifi)

Badiiy ta'lim yo'nalishlarida mutaxassis kadrlarning malakasini oshirish to'g'risidagi sertifikat A4 formatli oq qog'ozda ofset usulida besh xil rangdan foydalangan holda: matn uchun — qora rangda, rasmlar tasviri uchun — yashil, ko'k, qizil ranglarda, fon uchun — och kul rangda bosib chiqariladi.

Varaqlarning chap qismida chetidan 10 mm chekingan holda eni 32 mm bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i tasvirlangan tasma joylashtiriladi. Tasmaning yuqori qismida diametri 30 mm bo'lgan Davlat gerbi, past qismida esa — 35 mm o'lchamli ikkita kvadrat qo'shilishidan hosil bo'lgan sakkiz qirrali yulduz, yulduzning o'rtasida muhr uchun 25 mm diametrli oq aylana joylashgan.

Varaqlarning qolgan qismida yuqorida lotin yozuvi bilan davlat tilida "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI. Badiiy ta'lim yo'nalishlaridagi mutaxassis kadrlarni malakasini oshirish haqida SERTIFIKAT" so'zlari bosiladi. Sertifikat uchta lotin harfi — MMO va olti raqamli sondan iborat tartib raqami bilan ta'minlangan. Barcha matn naqshli rastrdan iborat och kul rang fonda bosib chiqariladi.

Sertifikat:

bosib chiqarishning ikki usuli — ofset va yuqori usuli;

yorug'lik vositasida nusxa ko'chirishni qiyinlashtirish uchun ochiq ranglar;

naqshli rastr;

har xil rangli rastrlardan foydalanish yo'li bilan turli ranglarni tashkil etish;

maxsus qog'ozlar;

o'zgaradigan raqamlardan iborat tartib raqami qo'llanilgan holda oltita himoyaga ega.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi

Namuna

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

Badiiy ta'lim yo'nalishlaridagi mutaxassis kadrlarni
malakasini oshirish haqida

SERTIFIKAT

MMO № 000000

(Mutaxassisning familiyasi, ismi, otasining ismi)

20__ yil _____ dan 20__ yil _____ gacha

O'zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta'lim yo'nalishlaridagi pedagog va mutaxassis
kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazida

jami _____ soatli

(Malaka oshirish kursining nomi)

bo'yicha malakasini oshirdi

Muhr o'rni

Direktor

Sana

Qayd raqami _____

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-iyundagi 385-son qaroriga
4-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 26-sentabrda 278-son qarorida (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2012-y., 39-son, 453-modda):

a) 1-ilova (Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy va tarmoq markazlari ro'yxati)ning "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazlari" bo'limida:

13-pozitsiyaning "Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari" ustunidan "san'atshunoslik" va "rangtasvir; dizayn; grafika; amaliy san'at; haykaltaroshlik" so'zlari chiqarib tashlansin;


quyidagi mazmundagi 18-pozitsiya qo'shilsin:

“	18.	O'zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta'lim yo'nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi	(Badiiy ta'lim) Tasviriy va amaliy san'at; Dizayn; San'atshunoslik; Muzeysunoslik	O'zbekiston Badiiy akademiyasi	”;
---	-----	---	---	--------------------------------	----

b) 2-ilova (Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimining tashkiliy tuzilmasi)ning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimining

TASHKILIY TUZILMASI



”;

2. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 5-maydagi 144-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2016-y., 5-son, 39-modda) bilan tasdiqlangan Bolalar musiqa va san’at maktablari to‘g‘risidagi nizomning [54-bandiga](#) quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi qo‘shilsin:

“Badiiy ta’lim (tasviriy va amaliy san’at, dizayn, san’atshunoslik hamda muzeyshunoslik) yo‘nalishlarida mutaxassislik fanlari bo‘yicha pedagog va mutaxassis kadrlar — O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazida reja asosida bepul malaka oshiradilar”.

3. Vazirlar Mahkamasining “Ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlarning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2019-yil 9-yanvardagi 9-son [qarorida](#):

a) [3-bandga](#) quyidagi tahrirdagi “v” kichik band qo‘shilsin:

“v) Badiiy ta’lim (tasviriy va amaliy san’at, dizayn, san’atshunoslik hamda muzeyshunoslik) yo‘nalishlarida mutaxassislik fanlari bo‘yicha pedagog va mutaxassis kadrlar — O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazida reja asosida bepul malaka oshiradilar”;

b) 3-ilova (O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tizimidagi ixtisoslashtirilgan san’at maktablari hamda maktab-internatlar to‘g‘risidagi nizom)ning 23-bandi **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“mutaxassislik fanlari bo‘yicha pedagog xodimlar — O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazida, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Musiqa sohasi pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazida reja asosida bepul malaka oshiradilar”.

(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.06.2021-y., 09/21/385/0583-son)